

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

olgan. Bu o‘zlashtirish ko‘r-ko‘rona taqlid emas, balki ijodiy va mustaqil tarzda yo‘naltirilgan badiiy yondashuv natijasi bo‘lib, Qodiriyning o‘zbek romanchiligidagi beqiyos o‘rnini mustahkamlab bergan. Shuningdek, mazkur qiyosiy tahlil natijalari orqali o‘zbek va arab adabiyotlarining tarixiy roman janridagi rivojlanishida madaniy ta’sirlar, adabiy aloqalar va estetik o‘zaro bog‘liqliklar mavjudligi isbotlandi. Bu esa nafaqat adabiyotshunoslik uchun, balki madaniyatlararo tadqiqotlar va Sharq romanchiligini kompleks tahlil qilish uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Иноғомов Р. Қодирий жаҳон кезади. Шарқ юлдузи. 1994. №3-4.
2. Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар: Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар /Абдурауф Фитрат; Масъул муҳаррир Б. Қосимов; Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Ҳ. Болтабоев. — Т.: «Маънавият», 2009. — 336 б.
3. Норматов, Умарали Қодирий муъжизаси: Тадқиқот, кайд, суҳбат ва мулоҳазалар/У. Норматов; масъул муҳаррир ва сунгсуз муаллифи Б. Каримов. —Т.: «О‘zbekiston» 2010. - 272-б.
4. Қодирий, Ҳабибулла. Отам ҳақида: Хотиралар. Тўлдирилган 2-нашри. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.-224 б.
5. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур: илмий монография / Б.Карим. - Тошкент: Академнашр, 2014. - 256 б.
6. XX аср ўзбек адабиёти тарихи: Ун-тлар ва пед. ин-тлари бакалавр ихтисосини олувчилар учун дарслик /Н. Каримов, С. Мамажонов, Б. Назаров ва бошқ/ Т.: Ўқитувчи, 1999.- 544 б.
7. Қодирий Абдулла. Ўткан кунлар: роман. Абдулла Қодирий. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.
8. Зайдон Жўржий. Фарғона келини [Матн]: Роман/ Ж.Зайдон; Араб тилидан Шоикром Шоисломов таржимаси. — Т.: Донишманд зиёси нашриёти, 2021. - 320 б.

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Umurova Ruxshona Isomiddin qizi
*Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich
ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda ona tili darslarining o‘rni, bu jarayonda qo‘llaniladigan samarali metodlar, shuningdek, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish yo‘llari yoritilgan. Metodik tavsiyalar*

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

asosida dars jarayonining interfaolligi va o‘quvchilarda muloqotga kirishish ko‘nikmalarini mustahkamlash usullari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *nutqiy kompetensiya, ona tili darsi, metodika, boshlang‘ich ta‘lim, interfaol metodlar, og‘zaki va yozma nutq.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль уроков родного языка в формировании речевой компетенции учащихся начальной школы, эффективные методы, используемые в этом процессе, а также способы развития устной и письменной речи. На основе методических рекомендаций анализируется интерактивность процесса урока и методы укрепления коммуникативных навыков учащихся.*

Ключевые слова: *речевая компетенция, урок родного языка, методика, начальное образование, интерактивные методы, устная и письменная речь.*

Abstract: *This article discusses the role of native language lessons in the formation of speech competence of primary school students, effective methods used in this process, as well as ways to develop oral and written speech. Based on methodological recommendations, the interactivity of the lesson process and methods for strengthening students' communication skills are analyzed.*

Keywords: *speech competence, native language lesson, methodology, primary education, interactive methods, oral and written speech.*

Bugungi kunda ta‘lim jarayonining asosiy maqsadi – o‘quvchilarni mustaqil fikrlovchi, o‘z fikrini ravon va aniq bayon eta oladigan, ijtimoiy faol, kommunikativ salohiyatga ega shaxs qilib tarbiyalashdan iborat. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf bosqichi o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyaning shakllantirishning muhim poydevor bosqichi hisoblanadi. Bu davrda o‘quvchilarda ona tilida muloqot qilish ko‘nikmalari, so‘z boyligi, to‘g‘ri talaffuz qilish, o‘z fikrini mantiqan ifodalash, tinglab tushunish va javob qaytarish kabi asosiy kommunikativ malakalar shakllanadi.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida o‘quvchi shunchaki bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi, muloqotchi sifatida qaralmoqda. Bu esa o‘qituvchidan innovatsion, interfaol yondashuvlarni qo‘llashni talab qiladi. Afsuski, amaliyotda ko‘plab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqi sust rivojlangan, so‘z boyligi cheklangan, fikrni bog‘liqlikda ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Bu holat ona tili darslarining faqat grammatik bilim berish emas, balki nutqiy kompetensiyaning shakllantirish vazifasini ham to‘laqonli bajarishini talab qiladi.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Milliy o‘quv dasturi ta‘lim sifatini oshirish va kompetensiyaviy yondashuvga o‘tish haqidagi islohotlar doirasida boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchining til orqali o‘z fikrini erkin ifoda eta olishi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri sifatida belgilanmoqda. Shu bois, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyaning shakllantirish masalasini ilmiy-nazariy hamda amaliy-metodik jihatdan o‘rganish dolzarb sanaladi.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Nutqiy kompetensiya — bu o‘quvchining til orqali muloqotga kirishish, o‘z fikrini ravon ifoda etish, tinglash, tushunish, javob qaytarish, savol berish, og‘zaki va yozma shaklda muloqot qilish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinfda bu ko‘nikmalar hali shakllanish bosqichida bo‘lgani sababli, pedagogik yondashuvlar ancha nozik va metodik jihatdan puxta bo‘lishi lozim. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida bu kompetensiyani shakllantirish o‘ta muhim, chunki:

1. Shaxsiy rivojlanish uchun asos bo‘ladi: nutqiy kompetensiya bolaning fikrini izchil, aniq va tushunarli bayon eta olishiga yordam beradi; o‘z fikrini mustaqil ifoda etish orqali bola o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi; til vositasida fikrlash, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalari shakllanadi.

2. Ijtimoiy moslashuvni ta‘minlaydi: muloqot madaniyatini o‘zlashtirgan bola tengdoshlari, kattalar bilan erkin va to‘g‘ri muloqotga kirisha oladi; ijtimoiy vaziyatlarda o‘z fikrini muloyim, madaniyatli tarzda ifodalashni o‘rganadi; jamoada ishlash, bahs-munozaralarda ishtirok etish, fikr almashish kabi ko‘nikmalar rivojlanadi.

3. O‘quv faoliyatining muvaffaqiyatiga xizmat qiladi: nutqiy kompetensiya barcha fanlarni o‘zlashtirishda asosiy vosita hisoblanadi (matn tushunish, izoh berish, savollarga javob yozish); tarbiyaviy darslardan boshlab barcha yo‘nalishlarda og‘zaki va yozma topshiriqlarni bajara olishda muhim rol o‘ynaydi; darsliklar bilan ishlash, matnlar tahlili, savol-javoblar, referatlar tuzish — barchasi nutqiy kompetensiyaning rivojlangan darajasiga bog‘liq.

4. Kelajakdagi hayotiy faoliyat uchun zamin yaratadi: nutqiy kompetensiyasi rivojlangan o‘quvchi keyinchalik o‘qishni davom ettirishda, kasb tanlashda, jamoa bilan ishlashda yuqori natijalarga erisha oladi; har qanday kasbiy faoliyatda samarali muloqot qilish, axborotni to‘g‘ri yetkazish va tushunish talab etiladi; kommunikatsion kompetensiya — XXI asrda har bir shaxsga zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardan biridir.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish usullarining nazariy ahamiyati shundaki, nutqiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyatini, uning tarkibiy qismlarini va boshlang‘ich ta‘lim tizimidagi o‘rnini nazariy jihatdan asoslash; ona tili darslarida til va nutq o‘rgatish jarayonining metodik asoslarini chuqur o‘rganish orqali lingvodidaktik tadqiqotlarga hissa qo‘shish; zamonaviy tilshunoslik va pedagogika nazariyalariga asoslanib, nutqiy kompetensiyani shakllantirishda samarali bo‘lgan metodlarning tahlilini berish.

Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish usullari:

1. Matn asosida ishlash: Matnlar bolalarning so‘z boyligini oshirish va kontekstda so‘zlardan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirishda samaralidir. Matn asosida savol-javob qilish, qisqacha mazmun chiqarish, matnga sarlavha qo‘yish kabi topshiriqlar bolalarning fikr yuritish salohiyatini oshiradi.

2. Hikoya tuzish va davom ettirish: O‘quvchilarga tayanch so‘zlar, suratlar yoki bosh qismi berilgan hikoyalar asosida nutq tuzdirish — bu ularning ijodiy fikrlashi va og‘zaki nutqini rivojlantiradi. Bu metod ayniqsa 2–4-sinflarda foydalidir.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

3. Dialog tuzish va rolli o‘yinlar: O‘quvchilarga muloqotli vaziyatlar yaratib berish, masalan, do‘konda, kasalxonada, maktabda muloqot kabi rollar berish orqali ular o‘zini real hayotda tasavvur qilib, nutqiy tajriba orttiradi. Bu orqali ularda erkin gapirish va fikrni tushunarli ifoda etish ko‘nikmalari shakllanadi.

4. Interfaol metodlar (Aqliy hujum, Klaster, Tushuncha xaritasi): Bu metodlar bolalarni faol fikrlashga, erkin mulohaza qilishga undaydi. Masalan, “Klaster” metodi orqali o‘quvchi bir so‘z atrofida ko‘plab tushunchalarni bog‘lab o‘rganadi va bu so‘z boyligini kengaytiradi.

5. She‘r va ertaklar asosida ishlash: Xalq og‘zaki ijodi namunalari va she‘rlar orqali o‘quvchilarda tovushlar, so‘zlar, iboralar ohangdorligi, mazmuni va estetik qabul qilish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa nutqning obrazlilik va mantiqiyiligini kuchaytiradi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslari nutqiy kompetensiyani shakllantirishning asosiy maydonidir. Quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin: nutqiy mashqlarni darsning ajralmas qismi sifatida rejalashtirish; matn bilan ishlashda savol-javob, tahlil, sarlavha qo‘yish kabi usullardan foydalanish; o‘quvchilarning yoshiga mos, qiziqarli va hayotga yaqin muloqotli vaziyatlar yaratish; so‘z boyligini oshiruvchi lug‘aviy o‘yinlar, interfaol metodlarni keng qo‘llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov N. va boshqalar. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. G‘afforova M. Nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. — Samarqand, 2019.
3. Xolboyeva D. Til o‘rgatishda innovatsion yondashuvlar. — Toshkent, 2021.
4. Vygotsky L.S. Pedagogik psixologiya. — Moskva: Pedagogika, 1991.
5. Zamonaviy boshlang‘ich ta‘lim metodlari. O‘zbekiston Respublikasi XTV, 2022.

JADIDLARNING MA’RIFATPARVARLIK MEROSI VA UNING ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIDAGI O’RNI

Sobirjonov Bekzodbek Farxodjon o‘g‘li

Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on tumani 28-sonli umumta‘lim maktabi o‘quvchisi

Ilmiy rahbar: To‘raxo‘jayeva Zulxumor Yusufjanovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati va uning asosiy ma‘rifiy g‘oyalari zamonaviy O‘zbekiston ta‘lim tizimi kontekstida o‘rganiladi. Tadqiqot davomida Avloniy, Behbudiy va Munavvarqori kabi jadid ma‘rifatchilarining qarashlari bugungi pedagogik yondashuvlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Muallif jadidlar merosining hozirgi raqamli ta‘lim, STEAM metodikasi, ma‘naviy-tarbiyaviy faoliyat va inklyuziv yondashuvlardagi aksini ilmiy-nazariy asosda yoritadi. Xulosa o‘rnida,